

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“ONA TILINI TIZIMLI O'RGANISH VA FIKRNI ANIQ
IFODALASH: MUSTAQIL VA IJODIY TAFAKKURNI IVOJLANTIRISH
METODIKASI” moduli bo'yicha**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

BUXORO –2024

Modulning ishchi o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 24-avgustdagi 9 – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan vazirlikning 2024-yil “6” sentabrdagi 333-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:	BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD) N.I.Adizova
Taqrizchi:	Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası professori, f.f.d.(DSc) D.N. Yo’ldosheva

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	12
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	20
V. GLOSSARIY.....	31
VI. TESTLAR.....	36
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....	40

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1- iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish; ona tili o'qitishning o'ziga xosligi va uni zamonaviylashtirishga amal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlari bo'yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- ona tili va adabiyot ta'limidagi muammolar: ta'lim jarayoni bilan bog'liq muammolar, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarishini o'zlashtirish.

- mazkur modulni o'qitishdagi jahon mamlakatlarida qo'llanadigan tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“Ona tilini tizimli o‘rganish va fikrni aniq ifodalash: mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standarti hamda uning maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, tarkibiy qismlarini;
- til tizimi, tilning tizimli ekanligi jihatidan kelib chiqib ona tilini o‘qitishni;
- tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasini;
- ona tili va adabiyot ta’limidagi tamoyillarni;
- nutq madaniyati va notiqlik san’atini;
- badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslarini;
- badiiy idrok etishda psixologik xususiyatlarni;
- nutq texnikasi orqali muloqotning ekspressiv va emotsional ta’sirini oshirish yo‘llarini ***bilishi*** lozim.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning umumdidaktik va o‘ziga xos ma’lumotlar bankini shakllantirish;
- lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashqlar bajarish;
- matn bilan ishlash yordamida shaxs kompetensiyasini shakllantirishga oid mashqlar bilan ishlash;
- ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchini ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish;
- so‘z tanlash, gapda so‘zni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash hamda nutqiy kompetensiyalarni egallash bilan bog‘liq masalalar asosida amaliy mashqlar bajarish;
- ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’lim standartlariga moslashtirgan holda amalda qo‘llay olish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning samarali metodlarini fan xususiyatiga mos holda kengaytira olishi;
- barqaror atamalar, kasb-hunarga oid birliklar hamda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarini anglashi;
- o‘z fikrini aniq ifodalay oladigan, mustaqil va ijodiy tafakkuri shakllangan barkamol shaxsni kamol toptirish asosida jamoa o‘rtasidagi muloqot va uning shakllari hamda lingvistik kompetensiyalarga ega bo‘lishi;
- pedagogik muloqot, o‘qituvchilik mahorati va ilg‘or texnologiya hamda ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari bo‘yicha kreativ kasbiy ***kompetensiyaga*** ega bo‘lishi lozim.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ul	
1	Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish	2	2	2		
2	Fikrni aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga erishish	2	2		2	
3	O‘quvchi – ta’lim – o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish.	2	2		2	
Жами:		6	6	2	4	

NAZARIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish (2 soat ma'ruza)

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish. Til tizimi, tilning tizimli ekanligi jihatidan kelib chiqib ona tilini o'qitish. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchini ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltirish, so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash hamda nutqiy kompetensiyalarni egallash bilan bog'liq muammolarni hal etish.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: Fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish (2 soat amaliy)

Fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish. Jamoa o'rtasidagi muloqot va uning shakllari bilan tanishtirish. Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish. Matn bilan ishlash yordamida fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish.

2-mavzu: O'quvchi – ta'lim – o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish. (2 soat amaliy)

O'quvchi – ta'lim – o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish. Muloqot texnologiyasi, texnikasi hamda pedagogik muloqot haqidagi tushunchalarni boyitish. «O'quvchi – o'quvchi», «o'quvchi – o'qituvchi» tizimida o'zaro muloqotni, bahs-u munozarani to'g'ri tashkil qilish, o'quvchi tafakkurini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirish asosida ularni o'qituvchilik mahorati va ilg'or texnologiya bilan tanishtirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O'zbekiston, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-5850-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi. “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi

“Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” gi 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

16. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
17. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.
18. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
19. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
20. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
21. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
22. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
23. Hakimov M. O‘zbek pragmalingsistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
24. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.
25. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
26. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, -T.: «Fan», 1992, 254 b.

IV. Internet saytlar

27. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
28. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
29. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
30. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet
31. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun o'quv mashg'uloti oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi, o'rganilayotgan o'quv materialining mazmuniga mos ravishda metod va vositalarni tanlash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish darajasi, amaliy ko'nikma va malakalarini interfaol yoki interaktiv ta'lim metodlari orqali rivojlantirish mumkin.

Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim-tarbiya jarayonida talaba-talaba, talaba-o'qituvchi hamkorligida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladigan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Interfaol ta'lim metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari o'zlashtirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Quyida o'quv mashg'ulotlarda keng qo'llaniladigan interfaol ta'lim metodlarining mazmuni va foydalanish bosqichlari bilan tanishamiz.

'Aqliy hujum' metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. 'Aqliy hujum' metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. 'Aqliy hujum' metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod

to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

'Aqliy hujum' metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

'Muammoli vaziyat' metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.


'Muammoli vaziyat' metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

'Muammoli vaziyat' metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

'Venn diagrammasi' mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

'Venn diagrammasi' sxemasi



III .NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish. (2 soat)

R E J A:

1. Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi.
2. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish usullari
3. O'zgalar nutqini tinglay va anglay olish ko'nikmalari

Til o'qitish prinsiplari ta'lim-tarbiya jarayoniga asos bo'ladigan qonun-qoidalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir. Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi. Nimani? qanday? qancha? o'rganish hamda o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug'ullanadi.

Demak, til o'qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Til o'qitish metodikasi oldida to'rgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi.

Uslubiyatning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bilib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutishimiz lozim: til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi roli uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan, nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va shakllari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va hulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi,

biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o‘stirish bilan o‘quvchining fikrlash qobiliyati ham o‘sadi.

Metodik fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasi maktabda o‘qitishning o‘quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradi-gan, tilni har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yo‘llari bilan ta‘minlash kerak. demak, nutq o‘stirish maktabning muhim vazifasidir. Ayniqsa, og‘zaki va yozma nutq analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishda umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta‘rif va qoidaga, shular asosida ya‘ni og‘zaki va yozma tarzda jonli nutqiy aloqaga, to‘g‘ri yozuv va to‘g‘ri talaffuzga o‘tiladi. O‘quvchilar jonli nutqiy aloqaga, to‘g‘ri yozuv va to‘g‘ri talaffuzga amaliy va nazariy jihatdan boyib kirishadilar. Ular kuzatish jarayonida uchragan til namunalarini, o‘zlari bilib olgan va nazariy o‘zlashtirgan qoidalarni amaliyotga ongli tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o‘qitish metodikasining bunday yo‘nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi va vazifalariga ham mos keladi, javob beradi.

Pedagogik, psixologiya bo‘limlarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi hamda ko‘nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi; bu jarayonda bolalar duch keladigan qiyinchiliklarni o‘rganadi, ta‘lim jarayonida bolalarning umumiy taraqqiyoti qonuniyatlarini belgilaydi, shuningdek, umuman va ayniqsa ona tilidan beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘shishini belgilaydi. Bu bilan pedagogik psixologiya metodikaga o‘quv materialini tanlashda, boshlang‘ich sinflarda ona tiliga o‘rgatishning mazmuni va hajmini, materialni sinflar bo‘yicha va har bir sinfning o‘z ichida ma‘lum izchillikda joylashtirishni belgilashda yordam beradi, o‘qitishning o‘quvchilar analitik-sintetik faoliyatining to‘g‘ri o‘shishiga ko‘mak-lashadilar eng samarali usul va shakllarini belgilaydi. Metodika psixologiya fani ma‘lumotlaridan foydalanib, bolalarning yosh xususiyatlarini xisobga olish va o‘quvchilarga individual yondoshish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ona tili o‘qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida nutqni talab qiluvchi, keltirib chiqaruvchi sabablar haqida, fikr bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida va ommaviy aloqaga nutqiy ta‘sirning foydasi haqida

ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'qitish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlari, qoida va prinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til materialini o'rgatish va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqilligi, o'qitishni hayot bilan bog'liq. Bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan ona tilidan ham o'quv jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, o'quvchining ongini oshirishi va tarbiyalashi ham lozim. Haqiqatdan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, ahloqiy, estetik tomonidan rivojlanadi, harakterida ma'lum ijobiy xususiyatlari yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi.

Ona tili metodikasining umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoa va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalar hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashqiltochilik, jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saramjon, iloji boricha chiroyli bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tomonidan amalga oshirilgan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning shunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab beradi. O'qituvchi

pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga o'rgatishni ta'lim-tarbiya jihatidan foyda keltirishini uyushtira oladi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilini amaliy va ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham lingvistik sikldagi fanlar (fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, grammatika-morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya) metodikaning muhim asosi hisoblanadi.

Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementlar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik prinsip asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.

Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (sinonim va antonimlar, so'zlarning guruhlariga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no ottenkalari ustida ishlash)ni to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

So'zning tarkibi va so'z yasalishini o'rganishda metodika va lingvistik fanlardan so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi.

Morfologiya va sintaksis muhim til hodisalarini shakllan-tirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'lmagan o'quvchilarda orfografiya va punktuatsiyadan ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Grammatika o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim rol o'ynaydi, chunki grammatika so'z shakllarini to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni o'zaro to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash va gapni to'g'ri tuzishga o'rgatadi.

To'g'ri yozuvga o'rgatish metodikasini rivojlanishida o'zbek tili orfografiyasi nazariyasini hisobga olish talab etiladi.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning

o'quvchilarga ta'sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va syujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur.

O'quvchilar so'z boyligini, dunyoqarashi, tafakkuri va kreativligini oshirishning eng samarali usullaridan biri ularning lug'at boyligini oshirish. Lug'at bilan ishlash orqali o'quvchilarning nutq madaniyati shakllanadi, og'zaki va yozma nutq savodxonligi oshiriladi. So'z tilning eng kichik ma'noli qismi. Tildagi barcha so'zlar va iboralar shu tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Leksikologiyada lug'at tarkibidagi so'zlarning ma'nolari, qo'llanilishi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning is'temoldan chiqib ketishi, o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi, ma'no ko'chish hodisalarini o'rganiladi. So'z aniq narsalarni ham, mavxum tushunchalarni ham ifodalaydi. Har qanday nutq grammatik jihatdan shakllangan, o'zaro bog'langan so'z va so'z birikmalarining ma'lum tartibda joylashuvidan hosil bo'ladi. O'quvchilarning lug'ati qancha boy bo'lsa uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi, o'z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon eta oladi. Shuning uchun o'quvchi lug'atining boyligi, harakatchanligi, rang-barangligi metodikada nutq ostirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning lug'at tarkibi bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib juda tez suratlarda o'zgarib, rivojlanib, boyib boradida. Har bir insonning o'z lug'at boyligi mavjud. Inson lug'atining boyib borishi bevosita jamiyat bilan bog'liq tarzda rivojlanib boradi. Lug'ati boy insonning nutqi ravon, ifodali, tafakkuri keng bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili juda katta lug'at boyligiga ega. Besh tomlik 'O'zbek tilining izohli lug'ati' 2006-2008 yillarda chop etilgan bo'lib, 2020-yil 80000dan ortiq so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga olgan holda qayta nashr etildi. Bular umumiy qo'llaniladiganlari, bundan tashqari sinonimlar, antonimlar, turli hil terminologik lug'atlar, frazeologik lug'atlarni ham oladigan bo'lsak o'zbek tilining lug'at imkoniyatlar yanada kengayadi. So'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatuvchi lug'atga imlo lug'ati deyiladi. Imlo lug'ati o'quvchilarga so'zlarni to'g'ri yozilishini o'rgatib boradi. Tildagi barcha so'zlarning qanday ma'nolarni anglatishini o'rgatuvchi lug'at turi esa izohli lug'at hisoblanadi. Bir tildagi so'z ikkinchi tilda

qanday so'zga teng kelishini ko'rsatuvchi lug'at tarjima lug'at sanaladi. Omonulla Madayev ta'kidlaganidek 'Til millatning ma'naviy boyligi, g'ururidir. Ajdodlarda avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida tilimizni asrab-avaylashimiz kerak. So'z ishlatishda o'ta sinchikov, talabchan bo'lishimiz kerak'ligi naqadar haqiqat. Bu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyos. Metodika lug'at ishlarini yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash, o'quvchilar lug'atini boyitish jarayonini boshqarish yo'llarini ishlab chiqadi.

Safo Matchonov, Karima Qosimovalarning 'Ona tili o'qitish metodikasi' kitobida maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi 4 yo'nalishda ish olib boradi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish. O'qituvchilarga so'zlarning ma'nolarini tushuntirish orqali har kuni 8-10 ta so'z bilan, jumladan, ona tili darsida 4-6 so'z bilan lug'atini boyitishni ko'zda tutadi.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish: a) o'qituvchilar ma'nosini yaxshi bilmaydigan so'zlar ma'nosini izohlash orqali; b) kinoyali, ko'p ma'noli so'z ma'nolarini izohlash orqali; v) sinonim so'zlarning ma'no ottenkalarini izohlash orqali; g) iboralarning ma'nosini izohlash orqali;

3. Lug'atni faollashtirish, o'quvchilar nutq jarayonida kam qo'llaydigan so'zlarni diologlar, suhbat uyushtirish, bayon, inshoda ishlatish orqali faollashtirish.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar lug'atidan chiqarib yuborish. Bunday so'zlar o'quvchilarning nutqiga tevarak-atrofdagi insonlar ta'sirida o'rnashib qolgan jargon, argo va shevaga xos so'zlar kiradi.

Dars jarayonida o'quvchilar adabiy til me'yorlarini o'zlashtirgach, shevaga xos so'zlar, jargonlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydi. O'quvchilarning nutqi turli yo'llar bilan boyib boriladi:

1. Tevarak atrofnı kuzatish, insonlar bilan muloqotga kirishish, tabiat qo'ynida sayohat qilish va mehnat qilish jarayonlarida o'quvchilarda yangi so'zlarni, ularning ma'nolarini o'zi uchun kashf etadi;

2. Badiiy asarlar o'quvchilarni nafaqat lug'at boyligini balki nutq madaniyati, tafakkuri, fikrlash qobiliyatini ham o'stirib boradi. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchilar juda ko'p shoir va yozuvchilarning asarlari bilan tanishib boradi bu

jarayonda o'quvchilar tarixiy va arxaik so'zlarni, ko'p ma'noli so'zlarni, iboralarni bilib oladi. Obrazli taffakkur qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3. Gazeta, jurnal va ilmiy adabiyotlar o'qish orqali o'quvchilarning lug'at boyligi ortib, nutqi ravon va fikri teranlashadi

4. Radio va kinofilm, televideniya ko'rsatuvlari ham o'quvchilar lug'atini o'stirishda samarali vositalardan biridir. Bular vositasida o'quvchilarning adabiy tildagi ko'nikma va malakalari ortib boradi.

5. Dars davomidagi mashqlar, matnlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilar lug'ati boyib boradi. O'quvchilar lug'atini boyitishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilar yangi so'zlarning ma'nolarini o'zi uchun kashf qiladi.

6. Turli xil izohli lug'at, terminologik, imlo, frazeologik lug'atlar bilan ishlash orqali ham o'quvchilarning so'z boyligi ortib, boyib boradi. Ona tili ta'limida nutq o'stirishning asosiy sharti o'quvchilarda lug'at bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

Dars jarayonlarida o'quvchi ma'nosini tushunmagan so'zlarni o'qituvchi yordamida izohlab, tushuntirib boriladi. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nodoshlarini topish, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni keltirish orqali tushuntirib boriladi. Lekin bu jarayonlar ko'p vaqt talab etmasligi lozim. Mavzuni tushuntirish jarayonida ma'nosi tushunarsiz so'zlar izohlab o'tiladi. Fikrlar til vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun tildagi so'zlarning ma'no nozikliklaridan o'z o'rnida foydalanishni bilishi lozim. Ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon va tushunarli ifodalay olishi lozim. Buning uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga ko'proq ahamiyat qaratilishi lozim.

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishdan asosiy maqsad zarur o'rinlarda ulardan unumli va samarali foydalanish, o'zgalar nutqini oson anglab olish, nutqning ta'sirchanligini oshirishdan iborat. Maktab ta'limi jarayonida ona tili darslarini mazmunli va samarali tashkil etishning asosiy vositasi darslik va lug'atlar hisoblanadi.

O'quvchilarning tafakkuri, ijodkorligi va nutq boyligini o'stirishning birlamchi omili lug'atlar ustida ishlashdir. Lug'atlar o'quvchi yoshlarning ijodiy tafakkuri, dunyoqarashi va tafakkur mahsulini og'zaki va yozma shakllarda aniq va ravon ifodalashga olib keladigan so'z xazinasini vujudga keltiradi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limning har bir bosqichi uchun maxsus lug'atlar yaratilgan bo'lib, hatto rus maktablari uchun ham talaygina o'quv lug'atlari yaratilgan. Ammo o'zbek maktablar uchun faqatgina 'Imlo lug'ati' bor. Maktablar uchun maxsus: izohli lug'at, terminologik lug'at, shakldosh so'zlar lug'ati, ma'nodosh so'zlar lug'ati, frazeologik lug'at, antonimlar lug'ati, arxaik so'zlar lug'ati, qomusiy lug'atlar yaratish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu kabi lug'atlar hozirgi kunda asosan kichik yoshdagi bolajonlar uchungina yaratilayotganiga guvoh bo'lyabmiz. Lekin, o'rta maxsus ta'limda dars jarayoni uchun kerakli lug'atlar yaratilmas ekan, o'quvchi fikrlash salohiyatini rivojlantirish mumkin emas. Maxsus lug'atlarsiz darsliklar o'z vazifasini to'laqonli bajara olmaydi. bu esa o'rta ta'lim uchun lu'g'atlar yaratishni taqozo qiladi.

Ona tili darslarida so'zlarning ma'nolari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga quyidagicha tanishtirib boriladi

IV.AMALIY MASHG'ULOT

1-mavzu: Fikrni aniq, ixcham ifodalash, soʻz tanlash va uni oʻrinli qoʻllash, ogʻzaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uygʻunligiga erishish.

R E J A:

1. Ona tili fani boʻyicha oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan DTS mazmuni.
2. Nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, oʻqish, gapirish va yozish)ni shakllantirish usullari.
3. Lingvistik kompetensiyalar (fonetik, leksik va grammatik)ni shakllantirish usullari.

Oʻzbekistonda yashovchi barcha millat vakillari oʻqish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda boʻlishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun oʻzbek tili taʼlimi xalqaro standart talablariga javob berishi, ularning turli nutqiy vaziyatlarga mos ravishda erkin muloqotga kirisha olish kompetensiyalarini, layoqatlarini shakllantirish kerak boʻladi. Bu borada jahonning yetakchi mamlakatlarida amal qilib kelayotgan va samarali natijalar berayotgan kompetensiyaviy yondashuvni til taʼlimiga tatbiq etish borasida amalga oshirilgan islohotlar, davlat taʼlim standartlari talablarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi, filolog oʻqituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi ishlab chiqilgani, taʼlim jarayonining oʻquv-uslubiy adabiyotlar va zamonaviy vositalar bilan taʼminlanishi taʼlim sohasida nihoyatda katta ahamiyatga ega boʻldi. Taʼkidlash kerakki, qarorlar mamlakatimizda til taʼlimini, shu jumladan, respublikamizning davlat tili boʻlmish oʻzbek tilini oʻqitishni ham yanada takomillashtirish (oʻzbek tili fanidan DTS talablarini ham xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish va taʼlimga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, oʻquv dasturlari mazmunini uzluksizlik va uzviylik asosida qayta koʻrib chiqish) borasida katta ishlar amalga oshirilishiga sabab boʻldi. **‘Kompetensiya, ‘kompetentlilik’** tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr oʻrtalarida N. Xomskiy tomonidan qoʻllangan boʻlib, tilni ishlatish jarayonida ‘faoliyatga yoʻnaltirilgan

bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida’, ta’lim sohasida esa **‘kompetensiyaviy yondashuv’** sifatida talqin etilgan bo‘lib, ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki, lug‘atlarda ushbu so‘zlarning ma’nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, ‘O‘zbek tilining izohli lug‘ati’da kompetensiya so‘ziga quyidagicha izohlangan: **‘Kompetensiya** – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo‘lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi’. Ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida esa bu so‘z quyidagicha sharhlanadi:

‘Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo‘lgan soha; 2. *yur.* huquq (vazifa, ish) doirasi. ‘ ;

‘Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; **Kompetentn/ы, -aya, oe, -ten, -tna** – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e’tiborli, mo‘‘tabar; 3) kompetensiyaga, ya’ni huquqqa ega bo‘lgan; vakolatli; **Kompetentlik** – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik.

Berilgan izohlar ta’lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, **ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni** egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmasi.

Tayanch kompetensiyalar insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning echimini hal eta olish, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘la olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi. Jumladan, o'zbek tilini o'rganishda o'quvchi-talabalar **nutqiy, lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalarni** egallashlari talab etiladi.

O'zbek tili ta'limida o'quvchi-talabalar **nutqiy, lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalardan** iborat xususiy kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

1. Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 amali bo'yicha: **tinglab tushunish bo'yicha** (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); **gapirish bo'yicha** (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish); **o'qish bo'yicha**: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish; **yo'zish bo'yicha** (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish).

2. Lingvistik kompetensiya: kundalik hayotda faol qo'llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo'naltirilgan lug'at boyligini oshirib borish, o'zbek tilining so'z yasalishi vositalarini bilish lug'at boyligini oshirib borishdan iborat bo'lib, bo'larning barchasi o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

3. Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada eshitilgan nutqni shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan va o'z ona tili va milliy an'analari bilan taqqoslagan holda muayyan nutqiy vaziyatga mos lingvistik shakl, ifoda uso'lida taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu layoqat o'quvchi-talabalarni o'z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, o'zbek adabiyoti namunalarini,

jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'qib o'rganish orqali shakllantiriladi.

4. Pragmatik kompetensiya kundalik hayotda o'zbek tilidan egallagan bilim, ko'nikmalari asosida muayyan nutqiy vaziyatda mustaqil muloqotga kirisha olish qobiliyatini, o'zaro suhbatlashish, suhbatga qo'shilish, suhbatdoshining nutqini sekinlashtirishga undashga oid muomala odobi vositalarini, tushunmovchiliklar paydo bo'lganda qayta so'rash, uzr so'rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, tilning amaliy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Qayd etilgan kompetensiyalar ta'lim oluvchilarda shaxsiy, ma'naviy, ijtimoiy, kasbiy ko'nikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo'llashga qaratilgan layoqatlarini shakllantirishga olib keladi va nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali ta'lim oluvchilarda **metakompetensiyalar** tarkib topishiga olib keladi. Biroq ko'zda tutilgan provard natijaga erishish uchun har bir ta'lim bosqichi bitiruvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarning me'yoriy darajasi talablarini bajarilishini ta'minlash kerak bo'ladi.

2-amaliy mashg'ulot O'quvchi – ta'lim – o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish.

Reja:

1. Pedagogik muomala va uning funksiyalari.
2. O'qituvchi muomalasining usullari.
3. O'qituvchining pedagogik mahorati.
4. Pedagogik hamkorlik.

Ba'zi o'qituvchilar borki, ular nihoyatda kuchli bilim, yaxshigina nutqqa ega bo'lishadi, biroq o'quvchilar bilan muomala qila bilishmaydi. Ularda o'qituvchini eshitish sabr-toqat malakasi yetishmaydi.

Maktabda 2 ta bosh **figura - o'qituvchi** va **o'quvchi** mavjud bo'lib, butun ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ana shu kishilarning muomala madaniyati darajasiga bog'liq. Biroq, hozirgi maktab, ta'lim-tarbiyani demokratiyalashtirish jarayoni bajarayotgan birdavrda ham, biz avtoritar-byurokratik, imperativ yondashuvni ko'ramiz.

Sakkiz yillik maktab direktori Men o'quvchilar bilan yolg'iz kurashmoqdaman, lekin ular bilan hamma kurashishini istayman', deb javraydi, natijada bolalardagi nuqsonlarga emas, balki ularning o'zlariga qarshi kurash boshlaydi. Masalan, sharmanda qilishga bag'ishlangan lineyka, qasam ichirish, ota-onalar orqali siquvga olish va h.k. Natijada ikki bir-biriga qarshi turuvchi o'quvchilar va o'qituvchilar lageri yuzaga keladi. Umumiy maqsadlar emas, balki shaxsiy qiziqishlar uchun kurash avj oladi.

Hozirgi istiqlool va demokratiya sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini, ongli fikrlay oladigan vatan va shaxsiy manfaatlari oldida mas'uliyat sezadigan fuqaroni tarbiyalash maqsadiga bo'ysunadi.

O'zaro qarama-qarshilik emas, balki hamkorlik, insonparvarlik bilan sug'orilgan munosabatlar - maktabda sermahsul muomala madaniyatini yo'lga qo'yish orqaligina yuqoridagi maqsadga erishish mumkin.

Hamma narsa o'qituvchining o'quvchilar bilan mohirona maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rgatishga bog'liq, chunki bunday munosabatlar o'z navbatida ijodiy muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko'pchilik **25 % o'qituvchi** o'zining maktabdagi yetakchilik rolini anglamaganligi uchun hamma aybni o'quvchilarning 'tarbiyasizligi' ga to'nkaydi.

Muomala – pedagogic faoliyatning muhim kasbiy quroli bo'lib, olimlar A. A. Kovalev, N. B. Kuzmina, U. A. Kan-Kalik, A. A. Leontyev, A. N. Mudrik, A. U. Sherbakovlar muomalaning o'qituvchi faoliyatida muhim rol o'ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muomala - u o'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik holat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy muloqoti.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarga ega: shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish, hamdardlik, o'z qadrini bilish, ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar hosil qilish, o'zida ishonchni shakllantirish va hakoza.

Axborotlarning almashinish funksiyasi materiallarning va ma'naviy sifatlarni almashtirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish, ichki ijoboy o'zgarishlarni hosil qilish, hamkorlikda bilishga oid qidiruv hamda ongli fikrlashga zarur sharoit yaratadi.

Pedagogik muomala tuzilishi. 1) Pedagog tomonidan sinf bilan bo'ladigan muomalani modellashtirishi (pragnostik bosqich). 2) Dastlabki o'zaro faoliyatga danoq bevosita muomalaga kirishuv (kommunikativ hukm). 3) Pedagogik jarayonda muomalani boshqaruv. 4) Kelajakdagi faoliyatni inobatga olgan holda qo'llanilgan muomala sistemasi va modellashtirishni tahlil qilish.

Noto'g'ri pedagogik muomala o'quvchilar qo'rquvini, ishonchsizligini, diqqati, xotirasini bo'shashtiradi, bilish qobiliyatini pasaytiradi, mustaqil fikrlashni susaytiradi va salbiy xulq-atvorini shakllantiradi. Natijada o'quvchida o'qituvchi va predmetga nisbatan munosabat shakllanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligidagi uning samaradorligini ta'minlaydi. A.S.Makarenko

o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlarida asosiy narsa talabchanlik va hurmat bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Suxomlinskiy quyidagi mahoratni o'qituvchi Maktab partalaridan aytilgan har bir so'z o'ylantiradigan donishmandona, maqsadga yo'naltirilgan, to'la ma'noli bo'lmog'i kerak'.

O'qituvchi munosabatida uslublar

Muloqotni 2 qismga bo'lish mumkin: ya'ni muomala va hamkorlikdagi harakatdan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'qituvchilar doimo o'z o'quvchilari [bilan emosional](#) - turg'un munosabatlarda bo'lganlari o'qishda, xulq-atvorida nuqsonlarni osoyishtalik bilan - teng va ishonch asosida hal etadi.

O'quvchilar bilan qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar esa o'quvchilar ishonchini yo'qotadi, tilyog'lamalik, o'zini ko'rsatish, sinfda masxaraomuz qiliqlarni shakllantirishga sharoit yaratadi. Bular o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatlarida 3 ta uslub mavjudligini ta'kidlaydi: 1. **Barqaror ijobiy** (turg'un); 2. **Faol - ijobiy**; 3. **Barqaror bo'lmagan** (turg'un bo'lmagan) uslub.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan uslublarini A.A.Leontyev xulosalab, beqaror o'ta salbiy uslubda bo'lganlari o'zlariga salbiy munosabatni yuzaga keltirishni ta'kidlaydi. Bunday o'qituvchi maktabga va jamiyatga ziyon keltiradi. Muomalada o'qituvchilarning ish uslublari 3 xil bo'ladi:

1. So'zsiz buysunishga asoslangan uslub.

2. Demokratik uslub.

3. Ko'ngilchanlik uslubi.

V.A.Kan-Kalik aloqa uslublarini tubandagilarga ajratib ko'rsatadi:

- **hamkorlikdagi** ijodiy faoliyat asosidagi uslubi;
- **do'stlikni xush ko'rish** asosidagi aloqa uslubi;
- **masofa saqlash** asosidagi aloqa o'rnatish uslubi;
- **do'g'lash, qo'rqitish** asosida aloqa o'rnatish uslubi;
- **hazil yoki o'yin** asosida aloqa o'rnatish uslubi;

Sh.A.Amonashvili do'stlik asosida aloqa uslubi haqida shunday g'oyani ifodalaydi: ('Agar bola bizdan uzoqlashsa qanday qilib uni tarbiyalaymiz?'). 'Faqat

ma'naviy birlik - bundan boshqa hech narsa bu birlikni buzishi mumkin emas'. 'Baqirish - insoniy munosabatlar madaniyati yo'qligining yaqqol ko'rinib turgan belgisidir. O'qituvchining baqirishi bolani dovdiratib, garang qilib qo'yadi' - degan edi Suxomlinskiy.

O'qituvchi munosabatlarida xushmuomalalik

Takt so'zma-so'z tarjima qilinganida dahldorlik, aloqadorlik, taalluqlilik ma'nosini bildiradi. **Xushmuomalalik** ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini tartibga solishga yordam beruvchi axloqiy mezon.

Xushmuomala xulq-atvorli pedagog insonparvarlik prinsipiga asoslanib, eng murakkab vaziyatlarda ham insonni hurmat qilish asosida ish tutadi.

Pedagogik xushmuomalalik pedagogning kasb sifati ya'ni mahoratining bir bo'lagidir. Pedagogik nazorat umumiy nazoratdan farqlanib, o'qituvchi shaxsining asosiy sifati bo'lib balki o'quvchiga to'g'ri malakali yondoshishni nazarda tutadi. Shunday qilib, pedagogik xushmuomalalik - o'qituvchining maqsadga muvofiq o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mahoratini belgilab beradigan, samarali uslubiy aloqasidir.

K.D.Ushinskiy 'Maktabda hazilga yo'l qo'yishni jiddiy hukm surishi lozim, ammo hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ostidan kir izlashga, yaxshilik, muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi, eng muhimi doimo aqliy faoliyat hukmron bo'lishi kerak', - deb ta'kidlagan edi.

O'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari me'yoridan ortiq bo'lsa, teskari natijalarni me'yoridan ortiq ko'ngilsizlik esa salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchini hurmatlab buni o'quvchilarga ko'rsata olish zarur. Hurmat qilish ochiq ko'ngillikni, erkalatishni, talabchanlikni inkor etmaydi, aksincha uni kuchaytiradi. Talabchanlik o'quvchi yoshining o'rtiq bo'lishi bilan orttirib boriladi.

Darsda pedagogik xushmuomalalik

O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasidagi tushunmasligining asosiy sabablaridan biri - o'qituvchining xushmuomala emasligi ya'ni o'quvchilarning

tashqi ko'rinishi, aqliy rivojlanishi, qobiliyatlariga qo'pol ravishda e'tiroz bildirishlari natijasida ro'y beradi. Ba'zi o'qituvchilar sinfda, ko'chada, qayerda bo'lmasin o'quvchilarni ogohlantiradi. O'qituvchining xushmuomalaligi darsning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Asosiy e'tiborni o'quvchilar uy vazifalarini tekshirish va baholashga qaratishi lozim. Bunda o'qituvchining nazorati mohirlik bilan ularning javoblarini tinglashi, mazmuni shakli, duch keladigan qiyinchiliklari va boshqalar. O'qituvchi o'quvchining javobidan kulimsirashi, yuz-qo'l harakatlarini o'zgartirishi, boshni irg'ashi, izoh berishi, javobni bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Pedagogik xushmuomalalikni o'zgartirish shartlari

Pedagogik xushmuomalalik o'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, qaysiki o'z ustida ishlab, maxsus bilimlarini orttirib borishi va o'quvchilar bilan xushmuomalalik qilish ko'nikmalarini shakllanirishni talab qiladi. U avvalo yoshlar ruhiyati va hozirgi zamon o'quvchilarining xususiyatlari haqida pedagogik ma'lumotga ega bo'lishini talab etadi. (Albatta o'quvchilarga ko'rsata olish, bolalarning ichki xulq-atvori).

Albatta o'quvchilarning ta'sir ko'rsatuvchi ko'nikma va bilimlar, o'qituvchi uchun juda zarur. Bular quyidagilardir:

- Bolalarni sevish, uni o'quvchilarga ko'rsata olish, bolalarning ichki xulq-atvorini mohiyatini ko'ra olish, sezish, vaziyatni mo'ljal qila olish: o'quvchilarga maqsadli ta'sir ko'rsatish [usullarini tanlash](#), bolalar bilan suhbatlashish va hakoza.

O'qituvchining vositachilik qobiliyatini rivojlantirish

O'qituvchida to'g'ri aloqa usullarining ta'minlanishi, pedagogik odobni saqlashi, har qanday faoliyatda uning vositachilik qobiliyat - ko'nikmalarini rivojlantirish talab qiladi.

A.S.Makarenko o'qituvchining vositachilik qobiliyatini rivojlantirishda muomalaning iltimos shakli haqida 'Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladigan, ishni bolaning batamom o'z xohishiga qo'yib beradi. Iltimos xuddi shunday bo'lishi ham kerak. Bu iltimosni shunday ifoda qilish

kerakki, bola uni birovning majbur qilish, orqasida emas, balki o'z ixtiyori bilan bajarayotgandek his qilish' - degan edi.

A.N.Leontyev o'qituvchining vositachilik qobiliyatlariga keng tavsif beradi:

1. O'quvchining ijtimoiy o'qish qobiliyatini bilishi;
2. O'quvchining tashqi belgilaridan [uning ruhiy holatini tushunish](#);
3. O'zini o'quvchilar bilan aloqa qilishga yo'llash;
4. O'quvchilar bilan nutql va so'zsiz bog'lanish orqali nutqli aloqani samarali tashkil etish.

Eng muhimi pedagogik jarayonda o'zaro hamkorlik asosida o'quvchilar bilan aloqa qilish qobiliyatlarini yo'lga qo'yishi va tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu muammolarni takomillashtirishda A.B.Dobrovich, V.Leviyev, V.A.Kan-Kalik singari mualliflarning asarlari yordam beradi.

Yosh o'qituvchilarga maslahatlar

1. O'quvchilar bilan aloqa bog'lashga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib talablar qo'yib borish.
2. O'quvchilar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish uchun o'z shaxsini ular bilan teng qo'yishi.
3. O'qituvchi va o'quvchilararo munosabatlarda o'zaro hurmatga asoslangan maqsadli aloqa o'rnatishi lozim. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, o'z tengdoshlari orasida o'ziga ishonch hosil qilishi va o'quvchilarda yaxshi sifatlarni rivojlantirishi muhim.
4. O'qituvchi ba'zan o'z mavqeyini, imkoniyatini, g'amxo'rligini namoyish qilishi ham zarur.
5. O'qituvchining o'quvchilar bilan aloqasining samarasi doimo o'quvchilar nutq faoliyatini o'stirish, o'z nutqini rivojlantirish, foydasiz vaqt sarfini kamaytirish, aloqalar sonini ko'paytirish (savol, javob) asosida olib borilsa maqsadga muvofiq.
6. Arzimaydigan kamgina muvaffaqiyat uchun bolalarni saxiylarcha maqtash zarur (o'quvchilar [jamoasida maqtash](#), kamchiliklarni esa o'quysnining o'ziga alohida aytish).

7. Agar siz o'quvchilar bilan ishni boshlaganingizdan keyin ham umidli o'zgarishlar bo'lmasa ham, ularga o'zlarining kamchiliklarni va e'tirozingizni aytmasligingiz darkor. Sizning asosiy vazifangiz - o'z mo'ljaligingizga ota-onalarni yo'ldosh qilishga va hamfikir bo'lishga qaratilish kerak.

8. Yosh o'qituvchi o'quvchi yoki ota-ona bilan o'zaro bir fikrga kela olmaslik malakasi yetishmasligi yoki bir masala to'g'risida bir fikrga kela olmasligi, yo malakasiz suhbatlar asosida samaraga erisha olmaydi. Shuning uchun suhbat ikki tomonga ham qiziqarli bo'lishi va vazifani ham o'qituvchi o'zi hal etishi kerak.

V .GLOSSARIY

Kompetensiya	-bilim, ko'nikma, qobiliyat, qarashlar, shaxsning malakasi yoki ish yuritish qobiliyatlarining namoyon bo'lishini belgilab beradigan shaxsiy sifatlar va qadriyatlar yig'indisi sifatida talqin etiladi.
Tovush eshitilishining uchuvchanligi	-bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olipdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushning uni engil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir.
Diapazon -	tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi.
Tembr	- tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, ilqligi, o'ziga xosligi. O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun tovush gigenasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida o'zoq vaqt so'zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo'lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.
Diksiya	- so'z, bu tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar bajariladi.
Ritmika	- ayrim bo'g'inlarni aytishdagi to'liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi bo'lib, ba'zan intonatsiya na pao'za o'ziga so'zdan ko'ra kuchli etotsional ta'sir qiladi.
Nutq tezligi	- o'qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq bo'ladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 so'z atrofida, inglizlarda 120 -150 so'zgacha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 so'z, 9-11 sinflarda 75 so'z gapirishi tug'ri bo'ladi.
Voiz	– diniy mazmunda va'z qiluvchi, va'z aytuvchi, va'zxon.
Jargon	- (frantsuzcha) Biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos, va o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili.
Uzus	– biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham tilning ichki normalarini ham o'z ichiga oladi.
Jargon	– (kasb, soha, mutaxassisliklariga xos bo'lgan g'aliz so'zlar);
varvarizm	- (o'zga millatlarga xos so'zlarning no'urin qo'llanishi);
vulgarizm	– (haqorat qilish, qo'pollikda qo'llaniladigan so'zlar);
koncelyarizm	– (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlarda foydalanish);

parazit- O'qituvchi imidji Lisoniy	(ortiqcha) so'zlarning ishlatilishi sanaladi. — jamoatchilikning unga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantiruvchi sifat va fazilatlari majmuidir. – arabcha so'z bo'lib, til degan ma'noni ifodalaydi, lisonoy birkiklarga til va nutq birliklari kiradi.
Frazeologiya Dialog	– iboralar to'g'risidagi fan. - Dialog nutq shakllaridan biri bulib, unda har bir fikr to'gridan-to'gri suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi.
Polilog	-ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuzilgan suhbat polilogdir . Polilog hamma til xususiyatlari jihatidan dialogning o'zidir. Faqat unda suhbatdoshlarning soni ko'proq bo'ladi. So'zlovchi o'rta tashlangan muommoga birdan ortiq ishtirokchi o'z fikrlarini bildirishi mumkin.
Monolog	- so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqidir. Monologik nutqda so'zlovchi o'ziga ma'lum bo'lgan voqea-hodisalar, o'z ichki kechinmalari haqida ma'lumot beradi.
'Texnika' hunar, san'at- grekcha)	- usul va vosita elementlarning yig'indisi, uning tarkibi - muloqot va munosabatdan iborat. Pedagogik texnika quyidagi elementlardan iborat: (o'qituvchi aql bilan o'zini xulqini boshqarishi). yuz xarakati (mimika), qo'l xarakati (jest), imo ishara (pantomimika), o'z emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy perseptik qobiliyatlari (diqqat, 'yuzdan o'qib olish', kuzatuvchanlik tasavvuri)
Nutq qobiliyati	- nutq yordamida, shuninrdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tug'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muximdir.
Til	- ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining mulokoti uchun muxim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga etkazish uchun xizmat qiladi.
Nutq	- ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida to'zilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi.
Nutqiy asar	Aniq aytilgan (yoki yozilgan) bir gap yoki o'zaro mantiqiy boglangan gaplar yigindisi nutqiy asar deyiladi: 'Nutqiy asar' tushunchasi ogzaki yoki yozma nutqning har qanday parchasini ham, xalq ogzaki ijodi asarlari va badiiy yozma adabiyotning tugallangan asarlarini ham o'z ichiga kamraydi. Har qanday nutqiy asar matn sifatida yuzaga chikadi.
Jargon	- (frantsuzcha) Biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos, va

	o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili.
Uzus	– biror til jamoasida til sistemasida mavjud bo'lgan imkoniyatlarning foydalanib kelinayotgan qismi. Uzus bir tilni boshqasidan ajratib turadigan shartlarni ham tilning ichki normalarini ham o'z ichiga oladi.
Jargon	– (kasb, soha, mutaxassisliklariga xos bo'lgan g'aliz so'zlar);
Varvarizm	- (o'zga millatlarga xos so'zlarning no'urin qo'llanishi);
Vulgarizm	– (haqorat qilish, qo'pollikda qo'llaniladigan so'zlar);
Voncelyarizm	– (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlarda foydalanish);
Varazit	- (ortiqcha) so'zlarning ishlatilishi sanaladi.
Matn	- deb u yoki bu holda tugallangan mazmun (ma'no) va nutqning birligini o'zida shakllantirgan hamda ifodalagan og'zaki yoki yozma asarga aytiladi.
Tasvir	- nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali harakatlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko'rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan shaxs, narsa yoki voqea-hodisani tinglovchi tasavvurida yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi. (Misollar beriladi.)
Hikoya qilish	Bo'lib utgan va yuz beradigan voqea-hodisalarni batafsil so'zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik xajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartishlar bilan bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa va hodisa o'z nomi, sifatleri bilan bayon etiladi.
Mulohaza	Kuzatilgan, eshitilgan yoki uqilgan narsalar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko'z oldiga keltirish mulohazaza hisoblanadi. Kishi mulohaza orqali yuz bergan bergan voqealar haqidagi haqiqatni topa oladi. Buning uchun mulohazaza to'g'ri, ilmiy asosda bo'lishi lozim.' Narsalarning haqiqatini bilish fakat farosat yo'li bilan amalga oshadi' (Ibn Sino).
Suhbat	Ma'lum bir mavzu yuzasidan dialog tarzida ikki yoki bir necha kishi urtasida bo'lib utgan nutqiy mulokot suhbat deyiladi. Suhbatning xususiyati shuki, suhbatdoshlar bir-birlariga savol beradilar va savollarga javob qaytaradilar. Bu suhbat ma'ruzadan farq qiladi. Ma'ruza monologik nutqdir.
Muxokama	- Ma'lum bir masala yuzasidan ko'pchilikni fikrini tuplashni, ma'lum tuxamlarga kelishni anglatadi.
Munozara	- Biror masala yuzasidan taraflarning baxsini, tortishuvini anglatadi. Baxs jarayonida har bir ishtiroqchi o'zining xak ekanligini isbotlashga intiladi.
Notiqona	Aytilayotgan fikrning tinglovchiga etib borishi va uning

so‘zlash	xulkgiga ta’sir etishi notiqning so‘zlash maxoratiga boglikdir. Notiqona nutqni maqsadi va xususiyatlariga kura tashvikiy, tankidiy, tabrik nutqlariga ajratish mumkin.
Tashvikiy nutq	deb muallif ko‘zda tutgan biron voqea-hodisani bajarishga tiinglovchilarni da’vat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi. Tashvikiy nutqda xalq hayotidan, tarixidan, odat, udumlardan va barcha vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi.
Tankidiy nutq	yuz bergan hodisalar, shaxslarning xatti-harakatlariga e’tirozli munosabatda bo‘luvchi nutq tankidiy nutq deyiladi.
Tabrik nutqi	tuylarda, tantanalarda, yubileylarda, tugilgan kunlarda so‘zlanadigan nutq tabrik nutqidir. Tabrik nutqi shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko‘rsatishga, ularni maktashga karatilgan bo‘ladi.
Fikrni yozma bayon etish	Bayon berilgan matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta yozishdir. Bayonda berilgan matn asosida yangi matn yaratiladi.
Saylanma bayon	Berilgan matndan ma’lum mavzuga mos saylab foydalanib yozilgan bayon saylanma bayon deyiladi. To‘liq bayon etilganda, uning kerakli joylari haqida gapiriladi, holos.
Konspekt	bayonning kurinishlaridan biridir. Konspekt 3 xil bo‘ladi: to‘liq, qisqa, tezisli. To‘liq konspektida matnning mazmuni muallif fikrlariga ba’zi bir izohlovchi gaplar kiritilishi orqali keng bayon qilib beriladi. Qisqa konspektida matndagi eng muxim deb hisoblangan fikrlar bayon etiladi. Tezisli konspekt manbaning asosiy qoidalarini, eng muxim fikrlarini ajratib olishdir.
Sikik xulosa	ma’ruza yoki boshqa asarlarda keng va atroflicha dalillar bilan bayon etilgan fikrlarning 3-4 gapli yakunidir.
Annotatsiya	-badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda kutarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga karatilgan qisqa xabardir.
Otziv (fikir)	-saylanma bayonning yana bir turi otzivdir. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan baxodir.
Referat	Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavzudagi asarning qisqacha mazmuni haqidagi bayon referat hisoblanadi.
Sharx (abzor)	referati ilmiy va boshqa asarlarga sharx berish, ya’ni uning umumiy xususiyatlarini qisqacha bayon qilib berishni ko‘zda tutadi.
Biografiya va avtobiografiya Tavsifnoma	Kishilarning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi bayon biografiya deyiladi. kishilarning ijtimoiy faoliyati, jamiyatda tutgan o’rni haqidagi muxokama tarzida aytilgan yoki yozilgan bayon tavsifnoma deyiladi.
Intervyu	Matbuotda e’lon qilish, radio eshittirish yoki televidenieda

foydalanish uchun muxbirlarni biror kishi bilan o'tkazgan suhbat, shu suhbatning matbuotda e'lon qilingan matni intervyu deb ataladi.

Ma'ruza

'Ma'ruza' so'zi odatda, ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Raxbar yoki boshliqqa ogzaki yoxud yozma berilgan axborot.
2. Biror mavzu yuzasidan jamoatchilik oldida berilgan axborot.

Leksiya

Oliy o'quv yurtlarida, omma oldida biror mavzu yuzasidan bayon tarzda o'tkaziladigan dars yoxud mashgulotdir. Shu mashgulotda tinglangan nutq ham leksiya deb yuritiladi.

Leksiya ikki xil:

1. Monolog leksiya.

2. Dialog leksiya.

Monolog leksiyada notiq ma'lum mavzu buyicha o'zi bilgan narsalar haqida so'zlaydi. Dialog leksiya tinglovchilarning faol ishtiroqida utadi.

hisobot. Xizmatga doir ma'lumot va mulohazazalardan iborat xujjat bo'lib, unda biror yumush, biror soha buyicha qilingan ishlar haqida xabar beriladi.

VI. TESTLAR

1. **Nutqiy faoliyat necha turga bo`linadi?**
 - A. 3 xil
 - B. 4 xil
 - C. 2 xil
 - D. 5 xil
2. **Nutq necha xil shaklga ega?**
 - A. 2 xil.
 - B. 3 xil.
 - C. 4 xil.
 - D. 5 xil.
3. **So`zlashuv uslubining asosiy belgilari qaysi javobda berilgan?**
 - A. oddiylik, tantanavorlik.
 - B. Betakalluflik, ilmiylik.
 - C. Oddiylik, betakalluflik, hayajonlilik.
 - D. Badiiylik, jozibadorlik.
4. **‘Notiqlik bo`yicha qisqacha qo`llanma’ asarining muallifi kim?**
 - A. Forobiy.
 - B. Kaykovus.
 - C. Demosfen.
 - D. Lomonosof.
5. **Intonatsiyaning unsurlarini toping?**
 - A. Nafas, ritm, tovush.
 - B. Melodika, ritm, temp, tembr.
 - C. Urg`u, ohang, qo`shimcha.
 - D. Ovoz, tovush, mimika, jest.
6. **Parazit so`zlar deb aytiladi?**
 - A. Nutqda vazifa bajarmaydigan so`zlarga.
 - B. Ma`lum bir guruhgagina tushunarli bo`lgan so`zlarga.
 - C. Ma`lum bir hududdagina ishlatiladigan so`zlarga.
 - D. Ilmiy uslubda ishlatiladigan so`zlarga.
7. **O`qituvchi nutqi qanday bo`lishi kerak?**
 - A. Sintaktik jihatdan soda.
 - B. Vulgarizmlar bilan boyigan.
 - C. Jozibador, sodda, tushunarli.
 - D. Nutqida shevalardan ko`p foydalanishi.
8. **‘Tarixda nom qoldirish uchun yo yaxshi sarkarda, yo yaxshi notiq bo`lishi kerak’. Ushbu fikrlar muallifi kim?**
 - A. Sitseron.
 - B. Demosfen.
 - C. Perikl.
 - D. Meneley.
9. **Qaysi uslubda nutqiy ifodalilikka kam e`tibor beriladi?**
 - A. Ilmiy uslub.

- B. Badiiy uslub.
- C. So'zlashuv uslubi.
- D. Rasmiy uslub.

10. Nutq madaniyati termini hozirgi zamon tilshunosligi talqinida qaysi hodisalarni ifoda etadi?

- A. Nutqiy hodisaning nomini.
- B. Madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq.
- C. Tilshunoslik fani bo'limining nomi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

11. Insoniy nutq faoliyati qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?

- A. Mutolaa qilish, so'zlash, eshitish.
- B. O'qish, yozish, chizish.
- C. So'zlashish tuzatish, yozish.
- D. Eshitish, gapirish, baqirish.

12. Nutqning aniqligini ta'minlaydigan bosh omil nima?

- A. Urg'u bilan ohangning birligi.
- B. Pauza bilan intonatsiyaning mutanosibligi.
- C. Shakl bilan mazmunning mutlaqo mos kelishi.
- D. Nutq tuzishda qarama-qarshi ma'noli so'zlarga e'tibor qaratish.

13. Aniqlikni buzuvchi holatlarga nimalar kiradi?

- A. So'z tartibining o'rnini almashtirib qo'llash.
- B. Paronimlarni noto'g'ri qo'llash.
- C. Sinonimlarni noto'g'ri qo'llash.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

14. Kichik ijtimoiy guruh vakillari orasida ishlatiladigan birliklar nima?

- A. Jargo va argo.
- B. Varvarizm.
- C. Vulgarizm.
- D. Parazit.

15. Qonun matnlari, farmonlar, buyruq va shartnomalar kabi ish qog'ozlari qaysi uslubda yoziladi?

- A. Ilmiy uslub.
- B. Rasmiy uslub.
- C. So'zlashuv uslubi.
- D. Publisistik uslub.

16. Rasmiy uslubda qanday gaplardan foydalanilmaydi?

- A. Buyruq gaplardan.
- B. So'roq gaplardan.
- C. Darak gaplardan.
- D. Gapning barcha turlaridan foydalaniladi.

17. Nutq texnikasi deyilganda fikrni davom ettiring.

- A. nuq tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar.
- B. O'rinsiz nutq tushuniladi.
- C. So'z birikmasi va gap tushuniladi.

- D. Badiiy tasvir vositalari tushuniladi.
- 18. Nutq texnikasida bosh masala bo'lib nima sanaladi?**
- A. Chiroyli qaddi-qomat.
 B. Baland ovozda gapirish.
 C. Ovoz sifati.
 D. Past ovozda gapirish.
- 19. O'qituvchi nutqida kuzatiladigan eng asosiy kamchilik nima?**
- A. Nafas olishdagi tartibsizlik.
 B. Hayajonlanish.
 C. Chiyildoqlik.
 D. Xirqiroqlik.
- 20. Og'zaki nutqni yashashini nima ta'minlaydi?**
- A. Urg'u.
 B. Intonatsiya.
 S. Tovush.
 D. Ovoz.
- 21. Nutq texnikasi ustida uzoq ishlagan notiq kim?**
- A. Klion.
 B. Gipokrat.
 S. Klavdiy.
 D. Demosfen.
- 24. Fikrni bayon qilish turlari qaysilar?**
- A. Suhbat, bayon.
 B. Munozara, saylanma.
 S. Munozara, konspekt.
 D. Suhbat, munozara, muhokama.
- 25. 'Ritorika' asarini kim yaratgan?**
- A. Beruniy.
 B. Aristotel.
 S. Farobiy.
 D. Sitseron.
- 26. Quydagi matnning uslubini aniqlang. Oqsil juda murakkab yuqori molekulali birikmadir. Suv molekulasi uch atom vodoroddan iborat.**
- A. Ilmiy uslub.
 B. Badiiy uslub.
 S. Publisistik uslub.
 D. So'zlashuv uslubi.
- 27. Badiiy uslubga xos xususiyat qaysi javobda berilgan?**
- A. Tasviriy vositalarni qo'llamaslik.
 B. Badiiylik, atamalarni qo'llash.
 S. Soddalik, tantanavorlik.
 D. Obrazlilik, estetik ta'sir etish vazifasi.
- 28. O'quv pedagogic vaziyat deganda nima tushuniladi?**
- A. Darsdan tashqari muloqot.
 B. Dars jarayonidagi muloqot.

S. O'quvchilarning o'zaro muloqoti.

D. To'g'ri javob berilmagan.

29. Publisistik uslubga xos xususiyat?

A. Ilmiylik, soddalik.

B. Tantanavorlik, jo'shqinlik.

S. Mantiqiylik, izchillik.

D. A va S to'g'ri.

30. Ilmiy uslubga xos xususiyat?

A. So'z va atamalarni ko'proq qo'llash.

B. Ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash.

S. Eskirgan so'zlarni qo'llash.

D. Neologizmlarni qo'llash.

VI.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5850-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi

“Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” gi 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

16. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
17. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.
18. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
19. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
20. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
21. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
22. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
23. Hakimov M. O‘zbek pragmalingsistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
24. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.
25. Safarov Sh. Kogitiv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
26. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubi asoslari, -T.: «Fan», 1992, 254 b.

IV. Internet saytlar

27. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
28. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
29. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
30. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali Ziyonet
31. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

